

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



**BUXORO
DAVLAT
UNIVERSITETI**



«Tasdiqlayman»

Buxoro davlat universiteti rektori

O.X. Xamidov

2023-yil

Ro'yxatga olindi №

104023 0101 1.04

2023-yil

« ILMIIY SEMINAR »

fandan

**O'QUV DASTURI
(magistratura talabalari uchun)**

Bilim sohasi:	200000 – San'at va gumanitar soha
Ta'lim sohasi:	230000 – Tillar
Mutaxassislik:	70230101 – Lingvistika: o'zbek tili

Buxoro - 2023

Fan/modul kodi IS 1106	O'quv yili 2023-2024	Semestr 3	ECTS - Kreditlar 2	
Fan/modul turi majburiy	Ta'lim tili o'zbek		Haftadagi dars soatlari 2	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Ilmiy seminar	30	30	60

2.

I. Fanning mazmuni

Fanni o'rganish zaruriyati. O'zbek formal (an'anaviy) tilshunosligi zaminida shakllangan, taraqqiyot yo'lini tanlagan va belgilangan maqsad asosidagi vazifalarini muvaffaqiyatli ado etgan o'zbek substantsial tilshunosligining hozirgi holati fanimizda yangi yo'nalishlarning shakllanishini, shuningdek, substantsial tilshunoslik yutuqlarining yuzaga kelish me'zonlarini chuqur bilishni taqozo qilmoqda.

Istiqlol natijasi o'laroq, o'zbek tilshunosligi tom ma'noda mustaqil milliy fan sifatida o'zini namoyon qildi. Eng muhimi, tilimizning milliy tabiatiga to'laqonli ilmiy-nazariy baho berildi. Qo'lga kiritilgan nazariy yutuqlar til qurilishini o'rganishdan uning voqelanish xususiyatlarining kengqamrovli tadqiqiga o'tish uchun katta imkoniyatdir. Bu esa o'zbek tilini yangi va zamonaviy, ilg'or va samarador tadqiq usullari asosida tekshirishni kun tartibiga qo'yimoqda.

Tilshunoslik sohasining nazariy mavzularini yoritish, fan doirasida o'rganiladigan asosiy masalalarning mazmun mundarijasini belgilash, nazariy tilshunoslikning muhim xususiyatlari borasida tasavvur hosil qilish, asosiy lingvistik hodisalar, jarayonlar, til birliklari, til birliklarining tizim sifatidagi qurilishi haqida ma'lumot keltirish, til mohiyatini nazariy muammolar asosida tahlil qilish uchun, avvalo, bo'lajak mutaxassislar ilmiy seminar sirlaridan xabardor bo'lishlari zarur.

Fanning maqsadi: "Ilmiy seminar" kursi tilshunoslik fani o'rganilishining nazariy asoslaridan birini tashkil etadi. Fanning maqsadi lingvistik tabiati va predmetini belgilashda, obyektiv borliqdagi hodisalarga tilning munosabatini o'rganishda muhim bo'lgan mavjud bilimlardan talabalarni puxta xabardor etishdan iborat.

Fanning vazifasi: magistrant talabalarning umumlingvistik tayyorgarligini, bilim doirasini yanada kengaytirish va chuqurlashtirish, yangi nazariy va metodologik materiallar bilan tanishtirish, ijodiy mulohaza yuritishga, izchillikka undash, nazariy bilim saviyasini oshirish, talabalarni ilmiy tadqiqot, lisoniy tahlil metodikasi va metodologiyasi bilan qurollantirishdan iborat.

II. Asosiy nazariy qism (seminar mashg'ulotlari)

Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:
(III jarayon uchun)

1-mavzu. "Ilmiy seminar" fanining maqsadi, vazifalari. Ilmiy bilishning asosiy mazmuni. «Ilmiy seminar» fanining maqsadi va vazifalari. Fan doirasida o'rganiladigan asosiy masalalar. Ilmiy bilishning asosiy mazmuni. Dunyoqarash va uning asosiy xususiyatlari.

2-3-mavzular. "Tilshunoslik va falsafa" ilmiy matni ustida ishlash. Har qanday fanning amaliy bilish ustiga qo'yilgan nazariy bilishga asoslanishi. Bilish falsafa fanining asosi. Nazariy falsafa asoschisi Kant uning o'rganish predmeti narsalar (tabiat va jamiyat) emas, balki insonning bilish faoliyatini ilmiy tekshirishdan, inson aqliy faoliyatini aniqlashdan iborat ekanini ta'kidlashi.

4-5-mavzular. "Obyektga substansial yondashuv va tilshunoslik" ilmiy matni ustida ishlash. Substansiya (lot. substantia – «mohiyat») atamasi falsafada antik davrdan buyon ishlatilishi. Falsafa tarixida mazkur atama xilma-xil tushunchalarni ifodalashi. Antik davr faylasuflari substansiya atamasi ostida olamdagi barcha narsa va hodisalarning asosini tashkil etadigan moddiy yoki ruhiy birlamchi narsani tushunishi.

O'rta asr sharq falsafasining Al-Kindiy, Ar-Roziy, Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd singari namoyandalari substantsiyaning hamma narsaning asosi, ularning mohiyati deb izohlashlari.

6-7-mavzular. "Dialektik kategoriyalar va tilshunoslik" ilmiy matni ustida ishlash. Borliqdagi barcha narsa va hodisalar o'zaro aloqadalligi. Ular bir-biriga ta'sir va aks ta'sir qilib turishi. Tabiat va jamiyatdagi hech bir narsa va hodisa boshqalardan ajralgan holda mavjud bo'lmasligi. Olamni bilish jarayonida uni tashkil etgan o'zaro munosabatdagi alohida narsa va hodisalarni umumiy bog'lanishlardan ajratish. Mazkur jarayonda uning o'ziga xos tomonlari va xususiyatlarini ochib berish maqsadida bu narsa va hodisalarning boshqa narsa va hodisalar bilan barcha aloqa va bog'lanishlarini, hamma aloqadorliklarini bilib borish.

8-9-mavzular. "Grammatik ma'no va grammatik shakl" ilmiy matni ustida ishlash. Grammatik ma'no leksik ma'no kabi predmeti: xos bo'lgan belgi, xususiyat, munosabatlarning ongda aks etishi. Bu esa leksik ma'noga qo'llanilgan semantik uchburchak grammatik ma'no uchun ham umumiy ekanini ko'rsatishi. Predmet– unga xos bo'lgan belgi-xususiyatning ongda aks etishi – ongda aks etgan belgi, xususiyatning ma'lum moddiy vositalar – grammatik shakllar yordamida ifodalanishi (Signifikat – Akustik ifoda – Denotat). Moddiy vosita bilan ongda aks etgan predmet xususiyati munosabati grammatik ma'no sanalishi.

10-11-mavzular. "Tilshunoslikning mantiq bilan munosabati" ilmiy matni ustida ishlash. Tilshunoslik mantiq fani bilan ham uzviy aloqadorligi. Har ikkala fanning ham tafakkur bilan bog'lanishi. Tilshunoslikning o'rganish obyekti bo'lgan til tafakkur bilan o'zaro munosabatdalligi. Til kishilarning olam haqidagi bilimlarini, fikrlarini boshqalarga yetkazuvchi va shakllantiruvchi vosita ekanligi. Til va tafakkur o'zaro dialektik munosabatda ekan, ularni o'rganuvchi tilshunoslik bilan mantiq o'rtasida ham ana shunday dialektik

aloqaning bo'lishi tabiiyligi.

12-13-mavzular. "Tilshunoslikning psixologiya bilan munosabati" ilmiy matni ustida ishlash. Lisoniy faoliyat, bir tomondan, tilshunoslikning o'rganish obyekti bo'lsa, ikkinchi tomondan, psixologiyaning ham tekshirish predmeti sanalishi. Tilshunoslik bilan psixologiyaning ham kesishish nuqtasi mavjudligi. Ikki fan oralig'idagi kesishish nuqtasi psixolingvistikaning o'rganish obyekti sanalishi.

14-15-mavzular. "Tilshunoslikning nevrologiya bilan munosabati" ilmiy matni ustida ishlash. Tilshunoslik tibbiyotning nevrologiya bo'limi bilan ham uzviy aloqada ekanligi. So'nggi davrlarda psixologiya, nevrologiya va tilshunoslik fanlarining oralig'ida neyrolingvistika nomi bilan yuritiluvchi yangi fan tarmog'i vujudga kelishi.

Neyrolingvistikada nutqiy faoliyat bosh miyaning mahsuli ekani, miya kasallanishining nutqiy faoliyatga ta'siri masalalari o'rganilishi. Neyrolingvistikaning o'rganish obyekti afaziya ekanligi.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limning bosh maqsadi talabalarning o'quv fani asosida olgan nazariy bilim va ko'nikmalarini takomillashtirish, ijodiy tafakkurni o'stirish, o'z ustida ishlash va mustaqil tahlil qilish malakasini rivojlantirish, ilmiy tadqiqot olib borishga tayyorlashdan iborat. Shu maqsadga muvofiq, fan va mustaqil ta'lim mavzulariga doir adabiyotlar ustida ishlash va ularni puxta o'zlashtirish, amaliy mashg'ulotlari uchun nazariy ma'lumotlarni to'plash va chuqur o'rganish, taqdimotlar tayyorlash talab qilinadi.

4.1. Mustaqil ta'lim mavzulari ustida ishlash bo'yicha tavsiyalar:

Talabalar fan bo'yicha o'quv, o'quv-usuliy, ilmiy adabiyotlarni chuqur o'zlashtirib, internet saytlaridagi manbalar va media ta'lim resurslaridan o'rinli foydalangan holda, mustaqil ta'lim topshiriqlari, mashg'ulot mavzulariga doir vazifalarni bajarishlari lozim.

Mustaqil ishni tayyorlashda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olib, quyidagi vazifalarni bajarish va mustaqil ta'lim shakllaridan foydalanish tavsiya qilinadi:

1. Darslik va o'quv qo'llanmalari bo'yicha fan mavzularini o'rganish.
2. Tarqatma materiallar bo'yicha nazariy qismni o'zlashtirish.
3. Internet saytlaridan ma'lumotlarni tanlash va o'zlashtirish.
4. Fanga doir adabiyotlar bo'yicha tushunchalar konspektini yozish.
5. Mustaqil ta'lim mavzulari bo'yicha taqdimot-slaydlari tayyorlash.
6. Amaliy mashg'ulotlar uchun taqdimot tayyorlash.
7. Mavzularni o'rganishda grafikli organayzerlardan foydalanish.

4.2. Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. "Sossyur lingvistik ta'limoti va uning zamonaviy tilshunoslik taraqqiyotidagi o'rni" matni asosida esse yozish.
2. "Roman Yakobson ta'limoti haqida" matni asosida esse yozish.
3. "Yakob Grimm ta'limoti" matni asosida esse yozish.
4. "Gyustav Giyom ta'limoti haqida" matni asosida esse yozish.
5. "Shakl va ma'no munosabati" matni asosida taqdimot slaydlari tayyorlash.

6. "Til va madaniyat" matni asosida taqdimot slaydlari tayyorlash.
7. "Til strukturasi nazariyasining taraqqiyoti" matni asosida taqdimot slaydlari tayyorlash.
8. Ilmiy seminar fani bo'yicha adabivotlarni o'rganish va tahlil qilish.
9. Ilmiy seminardan darslik va o'quv qo'llanmalarining bobliari hamda mavzularini o'rganish
10. Ilmiy seminardan tarqatma materiallar tayyorlash. (bo'limlar bo'yicha)
11. Ilmiy bilishning asosiy mazmuni bo'yicha taqdimot materiallarini tayyorlash
12. "Tilshunoslik va falsafa" ilmiy matni asosida nostandart materiallar tayyorlash
13. "Falsafiy UMIS va AHVOning tilda voqelanishi" dan taqdimot materiallarini tayyorlash
14. Magistrlik dissertatsiyasi mavzusini mantiq bilan bog'lab ilmiy maqola tayyorlash.
15. Magistrlik dissertatsiyasi mavzusini psixologiya bilan bog'lab ilmiy maqola tayyorlash.

Mavzular talabalar tomonidan fan bo'yicha tavsiya etilgan adabiyotlar, shuningdek, qo'shimcha tarzda topilgan o'quv-ilmiy manbalar asosida puxta o'rganilib, *"Mustaqil ta'lim mavzulari ustida ishlash bo'yicha tavsiyalar"* da ko'rsatilgan mustaqil ta'lim shakllaridan foydalangan holda tayyorlanishi lozim.

Mustaqil ta'limga doir materiallarni o'zlashtirish va topshiriqlarni bajarish natijasi nazorat qilinadi. Mustaqil ishlar talabaning o'quv fani bo'yicha bilim va malakasini baholashda inobatga olinadi.

3. V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalar).

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

Magistrlarning fan bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirish, kengaytirishda; o'zbek tilshunosligida qo'llanilayotgan atamalarni o'zlashtirishda; shu fanning nazariy ma'lumotlarini yoritishda; substansial yo'nalish muammolari ustida ishlash va pragmatik lingvistika masalalarini yoritishda mazkur fan muhim ahamiyatga ega.

Ushbu kurs magistrant talabalarining umumlingvistik tayyorgarligini, bilim doirasini yanada kengaytirish va chuqurlashtirish, yangi nazariy va metodologik materiallar bilan tanishtirish, ijodiy mulohaza yuritishga, izchillikka undash, nazariy bilim saviyasini oshirish, talabalarni ilmiy tadqiqotning, lisoniy tahlilning metodikasi va metodologiyasi haqida yetarli bilimga ega bo'ladi.

4. VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- interfaol keys-stadilar;
- mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar;
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlar;
- individual loyihalar;
- jamoaviy ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

5. VII. Kreditlarni to'plash tartibi va talablari:

Fanga oid nazariy tayanch tushuncha va masalalarni to'liq o'zlashtirish,

amaliy tahlil malakasiga ega bo'lish hamda tahlil natijalarini aniq, dalilli va to'g'ri aks ettira olish, fan doirasidagi masalalar bo'yicha mustaqil mushohada yuritish va mantiqiy izchil xulosalash, oraliq va yakuniy nazorat turlariga doir vazifalarni – yozma ish, og'zaki savol-javob yoki test shaklidagi topshiriqlarni bajarish lozim.

Talaba semestr yakuniga qadar 2 kredit to'plashi zarur va bunga 100 ball beriladi.

Ballar taqsimoti

№	Fanga oid nazorat turi	Ball miqdori
1.	Joriy nazorat	30
2.	Oraliq nazorat	40
3.	Yakuniy nazorat	30
	Jami:	100

Talabalarni baholash tartibi

Baholash tartibi o'z ichiga nazoratlar turi (oraliq, joriy va yakuniy)ni qamrab oladi. Talabaning o'zlashtirish darajasi quyidagi yo'l bilan baholanadi:

Darajasi	Ballar (foiz)	Reyti g	
A+	95 - 100 ball	5	a'lo
A	90 - 94 ball	4.0	
B+	85 - 89 ball	3.5	juda yaxshi
B	80 - 84 ball	3.0	
C+	75 - 79 ball	2.5	yaxshi
C	70 - 74 ball	2.0	
D+	65 - 69 ball	1.5	shartli o'tdi
D	60 - 64 ball	1.0	
F	59 ball va undan past	0.0	o'tmadi

Talabaning o'zlashtirishini belgilash mezonlari

“A+”, “A”, “B+” baho: talaba materiallarni mustaqil ravishda tez o'zlashtiradi: xatolarga yo'l qo'ymaydi; mashg'ulotlarda faol ishtirok etadi; savollarga to'liq va aniq javob beradi.

“B”, “C+”, “C” baho: talaba materiallarni yaxshi o'zlashtirgan, uni mantiqiy ifoda eta oladi; mashg'ulotlarda faol ishtirok etadi; savollarga to'liq va aniq javob beradi, biroq uncha jiddiy bo'lmagan xatolarga yo'l qo'yadi.

“D+”, “D” baho: asosiy materiallarni biladi, biroq aniq ifoda etishga qiynaladi;

savollarga javob berishda aniqlik va to'liqlik yetishmaydi; materiallarni taqdim etishda ayrim xatoliklarga yo'l qo'yadi; kommunikatsiya jarayonida qiyinchilik sezadi.

"F" (o'tmadi) baho: materiallarni o'zlashtirmagan; savollarga javob bera olmaydi; mashg'ulotlarda ishtirok etmaydi.

Talabalarni baholashda quyidagilar hisobga olinadi:

- mashg'ulotlardagi ishtiroki (davomati);
- mashg'ulotlardagi faollik va ijodiy yondashuv;
- asosiy va qo'shimcha o'quv materiallarini o'zlashtirganlik;
- mustaqil ta'lim bo'yicha topshiriqlarning o'z vaqtidagi ijrosi;
- nazoratning barcha turlarini o'z vaqtida bajarganlik.

Akademik va yetik talablar

Nazorat topshiriqlarini bajarishda ko'chirmakashlikka (plagiatlikka) yo'l qo'yilmaydi.

Test, o'quv loyihalari, mustaqil ishlar, oraliq, joriy, yakuniy nazorat topshiriqlarini boshqa shaxslardan ko'chirib olinishiga yo'l qo'yilmaydi, boshqa talabaning o'rniga imtihon topshirish ta'qiqlanadi.

Kurs bo'yicha har qanday nazorat topshirig'ini soxtalashtirgan talaba "fanni o'zlashtirmagan" ("F") hisoblanadi.

Mashg'ulotlar paytida mobil aloqa va boshqa elektron qurilmalardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Mashg'ulotlar paytida auditoriyada (virtual auditoriyada) belgilangan talablarga zid harakatlar qilish mumkin emas.

Boshqalar va turli fikrlarga tolerant munosabatda bo'lish talab etiladi.

Mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish, ularni taqdim etish, zarur ma'lumotlar va turli materiallar bo'yicha savollarga quyidagi grafik asosida o'qituvchiga murojaat qilish mumkin:

№	kun	vaqt	xona
1.			
2.			

6.

VIII. O'QUV FANI BO'YICHA TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR VA AXBOROT MANBALARI

Asosiy adabiyotlar:

1. Раҳматуллаев Ш. Илмий тадқиқот асослари. –Т. 2002.
2. Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. –Т.: Ўқитувчи, 1993. – 30 б.
3. Гумбольдт В. фон. Язык и философия культуры. -М.: Прогресс, 1985. 451 с.

Qo'shimcha adabiyotlar:

4. Билиш фалсафаси (гносеология). –Т.: Университет, 2005. - 347 б.
5. Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. –М.: Прогресс, 1984. – 397 с.
6. Миртожнев М., Махмудов Н. Тил ва маданият. –Т.: Ўзбекистон, 1992. – 110 б.
7. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi o'zbek tili. –B., 2021.–555 b.

Elektron manbalar

[https://www.researchgate.net/publication/337655858_TIL -](https://www.researchgate.net/publication/337655858_TIL_MADANIAT_FENOMENI)

[MADANIAT FENOMENI](https://www.researchgate.net/publication/337655858_TIL_MADANIAT_FENOMENI)

<http://www.utpa.edu/faculty/mglazer/Theory/structuralism.htm>

http://www.eng.fju.edu.tw/Literary_Criticism/structuralism

7. Fanning o'quv dasturi Buxoro davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. (BuxDU Ilmiy kengashining 2023-yil 29-avgustdagi 1-sonli bayonnomasi.)

8. Fan/modul uchun mas'ullar:

 **D.Z. Rajabov** – BuxDU o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasini mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

 **D.N. Yuldasheva** – BuxDU o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasini professori, f.f. nomzodi

9. Taqrizchilar:

 **M.Q. Abuzalova** – BuxDU o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasini professori, f.f. doktori

 **S.A. Nazarova** – BuxDU o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasini dotsenti, f.f. fanlari nomzodi

